

ISSN:  
3030-3311



Academic  
Resource  
Index  
ResearchBi

# JCWS

Volume|3  
Issue|3  
MARCH  
2025

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

OpenAIRE | EXPLORE

J JCWS



FAST SUPPORT  
AND RESULT  
JOURNALS

RESEARCH

## JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES


<https://bestjournalup.com/index.php/jcws>

VOLUME | 3 ISSUE | 3 | MARCH | 2025

TOM | 3 ВЫПУСК | 3 | МАРТ | 2025

JILD | 3 SON | 3 | MART | 2025

*ISSN: 3030-3311*



**JCWS**

Monday  
March 31  
2025

## XUSUSIY KAPITALDAGI O'ZGARISHLAR TO'G'RIDAGI HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

ISSN:  
3030-3311

**Safarov Otabek Abdulla o'g'li**

*International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot muhim ahamiyatga ega, chunki bu tahlilchilar va moliyaviy hisobotlarni ko'rib chiquvchilarga hisobot davrida mulkdor kapitalning o'zgarishiga qanday omillar sabab bo'lganligini ko'rish imkonini beradi. Siz aksiyadorlar xaxiralarning harakatlarini balansda topishingiz mumkin. shu bilan birga, kapital xaxiralari haqida ma'lumot boshqa moliyaviy hisobotlarda alohida qayd etilish.

**Kalit so'zlar:** Aksiyadorlik kapitali, Emission daromad, Taqsimlanmagan foyda, kapitalning boshqa elementlari, aksiya bilan to'lovlar uchun rezerv.

Email: [otabek1272@gmail.com](mailto:otabek1272@gmail.com)  
©2025. Safarov Otabek

Published by Fast support and result  
LLC. This is an open access article  
under the CC BY-NC-ND license



Creative Commons Attribution-  
NonCommercial-NoDerivatives  
4.0 International License

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosda boshqaruv personalni professional darajasini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati shaffofligini oshirish, ular tomonidan audit va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida axborotlarni nashr ettirish vazifalari yuklatilgan. Farmondan kelib chiqadigan vazifalarni amalda ijrosini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini chuqur o'rganishimiz, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishimiz, milliy standartlarimizni imkon qadar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishimiz kerak.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav

(aksiyadorlik) kapitali nominal qiymati bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi aksiyalardan tashkil topadi. Jamiyatning ustav kapitali uning kreditorlari manfaatini kafolatlovchi jamiyat mulkining minimal miqdorini belgilaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari qonunda belgilangan miqdordagi ustav kapitalini davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan boshlab, bir yil muddat ichida shakllantirish lozimligi ko'rsatilgan.

Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobi maqsadlarida 1) e'lon qilingan (ishlab chiqarishga ruxsat berilgan yoki vakolat berilgan) aksiya, 2) ishlab chiqarilgan aksiya, 3) muomala (tashqari)dagi aksiya, 4) ishlab chiqarilmagan aksiya, 5) zahara (xazina)dagi aksiyalarga tasniflangan.

21-son BHMSda aksiyaning har bir emissiyasida aksiyalarning analitik hisobi 1, 2 va 3-lari bo'yicha yuritilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Biz bu borada chet el adabiyotlarida keltirilgan, jumladan R.Libbi va boshqalar,



R.Tomas va boshqalar tomonidan yuqorida qayd qilingan ko'rsatkichlarga keltirgan ta'riflarini o'rganish asosida, bizning Qonunlarimiz va amaliyotimizga uyg'un bo'lgan tavsifini va ular o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi tartibda keltiramiz.

Elon qilingan (ishlab chiqarishga ruxsat berilgan yoki vakolat berilgan) aksiyalar bu aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishlab chiqarishga vakolat berilgan va jamiyatning ustavida ko'rsatilgan aksiyalarning maksimum miqdoridir.

Ishlab chiqarilgan aksiya bu berilgan vakolat asosida haqiqatda ishlab chiqarilgan aksiyalar bo'lib, uning miqdori sarmoyadorlarga va aholiga sotilgan (muomaladagi) va zaxiradagi (xazinadagi) aksiyalardan iborat bo'ladi.

Muomaladagi (tashqaridagi) aksiyalar bu ma'lum sanada aksiyadorlar egaligida bo'lgan jami aksiyalardan iboratdir.

Ishlab chiqarilmagan aksiyalar ishlab chiqarishga vakolati mavjud bo'lgan, lekin belgilangan sanada hali ishlab chiqarilmagan (mavjud bo'lmagan) aksiyalardan iboratdir.

Zaxira (xazina)dagi aksiya bu ishlab chiqarilgan, jamiyatning qo'lida ushlab turiladigan yoki muomaladan qaytarib olingan aksiyalar hisoblanadi. Bu ko'rsatkich milliy standartda keltirilgan "sotib olingan o'z aksiyalari" ko'rsatkichiga monant keladi. Ushbu aksiyalar ovoz berish, dividend olish va boshqa muomaladagi aksiyalar ega bo'lgan huquqlarga ega emas.

Aksiyalar nominal qiymatdan ortiq qiymatda sotib olinganda, ya'ni yuqorida qayd qilingan birinchi holatda sotib olinganda ikkita jihatni hisobga olish lozim, qaysiki hisob jarayonida bu jihatlarni inobatga olish talab etiladi. Birinchisi, aksiyani xaridi uning

nominal qiymati bilan bozor qiymatigacha bo'lgan oraliqdagi narxda amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Bunda, xarid narxi bilan nominal qiymati hamda bozor qiymati bilan xarid narxi o'rtasidagi farqlarni bir-biridan ajratgan holda hisobga olish lozim. Amaldagi hisob protsedurasida bu jarayonlar inobatga olinmagan, natijada hisob tamoyillaridan ayrim holatlarda chetlanishlarga olib kelmoqda. Taklif qilingan tartibda aksiyalarning bozor qiymati bilan xarid narxi o'rtasidagi farq moliyaviy faoliyatdan olingan daromad sifatida e'tirof etilgan va ushbu summa emission daromaddan moliyaviy faoliyatdan olingan daromadga o'tkazilayapdi. Ikkinchisi, aksiyani xarid narxi uning bozor qiymatidan katta bo'lishi mumkin. Bunday hollarda xarid narxi bilan bozor qiymati o'rtasidagi farq moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajat deb e'tirof etilishi maqsadga muvofiqdir. Keltirilgan jadvalda uni hisobga olishning uslubiy tartibi aks ettirilgan.

Ikkinchi holatda esa, muomaladagi aksiya bozor qiymatidan yuqori narxda sotib olinganda yuzaga kelgan emission kapital summasi moliyaviy faoliyat bo'yicha daromad sifatida tan olinishi kerak. Uning buxgalteriya yozuvi jadvalda keltirilgan.

Shu bilan birga aksiyalarni qayta sotish operatsiyalarini schyotlarda aks ettirish tartibini ham takomillashtirish zarur, deb o'ylaymiz. Amaldagi tartibda sotish narxi tannarxdan ortiq narxda sotilganda schyotlarda aks ettirish tartibi keltirilmagan. Jadvalda ushbu holatlar bo'yicha talluqli buxgalteriya yozuvlari taklif etildi.

Yuqoridagi takliflarni inobatga olib xususiy kapitalning tarkibiy qismlarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda quyidagi tartibda aks ettirishni taklif etamiz.

#### 1-jadval

#### Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda xususiy kapital tarkibiy qismlarini aks ettirish

<b>PASSIV</b>			
<b>I. O'z mablag'lari manbalari</b>	<b>Satr</b>	<b>Hisobot yili boshida</b>	<b>Hisobot yili oxirida</b>
<b>Xususiy kapital (250+280+290-300+310+320+330)</b>	240	5419278	-1065969
Ustav kapitali (260 yoki 270)	250	598250	598250
Hissali kapital (261+262)	260		

A-kapital egasi	261		
B-kapital egasi	262		
Aksiyadorlik kapitali (271+272)	270	598250	598250
Imtiyozli aksiyalar-nominal qiymati X, ruxsat etilgan soni X, chiqarilgan aksiyalar soni X	271		
Oddiy aksiyalar – nominal qiymati 1000 so'm, ruxsat etilgan soni 598250, chiqarilgan aksiyalar soni 598250	272	598250	598250
Qo'shilgan (emission) kapital	280	129127	129127
Rezerv kapitali	290	2862277	2851981
Xarid qilib olingan o'z aksiyalari soni X	300		
Taqsimlanmagan foyda	310	1806478	-4668473
Maqsadli tushumlar	320	23146	23146
Kutilayotgan xarajatlar va to'lovlar uchun rezervlar	330		
<b>I-bo'lim jami (240)</b>	<b>340</b>	<b>5419278</b>	<b>-1065969</b>

Jadvalda xususiy kapital ustav kapitali, emission kapital, rezerv kapitali, taqimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va kutilayotgan xarajatlar va to'lovlar uchun rezervlardan tashkil topishi ko'rsatildi. Amaldagi balans farqli o'laroq ustav kapitali hissali kapital va aksiyadorlik kapitaliga ajratildi.

Hissali kapital, misol uchun mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda har bir ta'sischining kiritgan mablag'i hisobidan shakllanishini aniq ko'rsatish imkoniyati tug'iladi. Bundan tashqari, ustav kapitali moddasini kapital egalari kesimida ko'rsatilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlik kapitali imtiyozli aksiyalar va oddiy aksiyalarni nominal qiymati, ruxsat etilgan aksiyalar soni, chiqarilgan aksiyalar sonini ko'rsatilgan holda aks ettirish tartibi taklif etildi. Bu esa balans hisobotining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari aksiyadorlik kapitalining tarkibida oddiy aksiyalarning nominal qiymatidan ortiqcha bahoda sotilishi natijasida shakllanadigan qo'shilgan kapital hamda o'z aksiyalarini xarid qilib olish natijasida o'zgarishini ham o'z aksini topdi.

Yuqoridagi takliflar asosida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga jamiyatning xususiy kapitali bilan bog'liq moddalariga o'zgartirishlar kiritish taklif etildi. Ushbu takliflar 17-ildavda keltirilgan.

Moliyaviy hisobotning tarkibiy komponentlarida muhim o'rinni xususiy kapital to'g'risidagi hisobot tashkil etadi. Ushbu hisobotning maqsadida aks ettirilayotgan axborotlar turlari, ularning mazmuni, taqdim qiliniyotgan axborotlarning zaruriyatligi, ular asosida qabul qilinayotgan qarorlar mazmuni o'z ifodasini topishi lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning maqsadini quyidagicha bayon etamiz:

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning maqsadi tashkilotning hissali kapitali, aksiyadorlik kapitali, emission kapitali, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydasining hisobot davri boshidagi holati va ularning hisobot davri davomida hissa kapitali kiritilishi, aksiyalarning sotilishi, kapital emissiyasi, hisobot davridagi sof foyda (zarar) va boshqa manbalar hisobidan o'zgarishi hamda hisobot davri oxiridagi holati to'g'risidagi axborotlarni taqdim qilish bo'lib hisoblanadi.

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" talablariga muvofiq "Xususiy kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobot"da quyidagi minimum axborotlar aks ettiriladi:

Davr uchun umumiy to'plam daromad, bunda bosh kompaniya mulkdorlariga va nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasiga to'g'ri keladigan qismlarga ajratilgan holda ko'rsatiladi;

Kapitalning har bir komponenti uchun retrospektiv qo'llash samarasi yoki 8-son

BHXSga muvofiq tan olingan retrospektiv qayta hisoblash;

Bekor bo'lgan;

Har bir kapital komponenti uchun davr boshida va oxirida balans qiymati o'zaro tekshiruv, bunda ularning quyidagi sabablarga ko'ra o'zgarishini alohida ochiqqlash:

(i) foyda va zararlar moddolari;

(ii) boshqa to'plam daromadlari moddolari;

(iii) Mulkdorlar bilan operatsiyalar, bunda mulkdorlar tomonidan kiritilgan ta'sis badallari va mulkdorlar foydasiga hissaning taqsimoti, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri nazoratning yo'qolishiga olib kelmaydigan sho'ba kompaniya qatnashchilari hissasining o'zgarishi.

Kompaniya kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobotda yoki unga izohlarda kapitalning har bir komponenti bo'yicha boshqa to'plam daromadlarni har bir moddolari kesimida tahlilini taqdim qilishlari talab etiladi.

Bundan tashqari, kompaniya kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobotda yoki unga izohlarda davr davomida mulkdorlar foydasiga taqsimlangan summa sifatida tan olingan dividendlar, shuningdek aksiyaga to'g'ri keladigan taalluqli dividend summalarini taqdim etishlari lozim.

14-son BHMS "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da hisobotni tuzishga doir qoidalar aks ettirilgan. Standartning 8-bandida "hisobotda hisobot davridagi xususiy kapital tarkibida bo'lgan o'zgarishlar haqidagi axborot ochib berilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar: qimmatli qog'ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitaliga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to'g'risidagi axborot ochib berilishi lozim"ligi ko'rsatilgan.

Ushbu moddaga bir qancha izohlar

keltirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholanishi to'g'ridan-to'g'ri xususiy kapitalda aks ettiriladigan modda bo'lganligi bois, yuqoridagi taklifda keltirilgandek, "Hisobot davrdagi daromad va xarajatlarning shunday moddalari, qaysiki to'g'ridan-to'g'ri xususiy kapitalda tan olinadi" moddasining tarkibida aks ettirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, tadqiqot ishlarimizda ustav kapitali schyoti ta'sischilarning ta'sis hujjatlari tasdiqlangan sanada kreditlanishi asosida yuza kelishi emas, balki haqiqatda badal kiritgan sanada shakllantirish tartibiga o'tish taklifi berilgan edi. Ushbu qoidaga amal qiladigan bo'lsa, ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi yuzaga kelmaydi. Ta'sischilarning ustav kapitalini shakllantirishi bo'yicha qarzlari amal qilmaydi. Shu bois, hisobotda "ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valyuta kursidagi farqlar" moddasiga zaruriyat qolmaydi.

Uchinchidan, bizning fikrimizcha, tekinga olingan mol-mulk daromad sifatida tan olinib, umumiy tartibda hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Agarda standartlarda boshqacha holat ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda tug'ridan-to'g'ri xususiy kapitalda tan olinadigan daromadlar tarkibiga kiritilishi kerak bo'ladi.

14-son BHMSning 9-bandida "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda quyidagilar: chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni to'g'risidagi axborotlar ham ochib berilishi kerak"ligi qayd qilingan. Bizga ma'lumki, 1-son BHMSning buxgalteriya balansi "izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda" taqdim etiladigan axborotlar tarkibida yuqorida qayd etilgan axborotlarni aks ettirish ko'zda tutilgan. Natijada, bir-birini takrorlash holatlari yuz bermoqda. Ushbu takrorlanish holatlariga barham berish maqsadida 9-bandni bekor qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda joriy qilingan hisobotning tarkibiy tuzilishi standart talablariga uyg'un, deb baholash mumkin. Lekin, uning tarkibiy tuzilishini yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida

takomillashtirilsa, uning foydalilik darajasi yanada yuksaladi, deb o'ylaymiz. Biz amaldagi hisobot shakli va unda aks ettiriladigan moddalarni takomillashtirish asosida xususiy kapitalning harakati to'g'risidagi hisobotning quyidagi shaklini taklif etamiz.

Ushbu taklif qilinayotgan hisobot shakli bir qancha xususiyatlarga ega:

Birinchidan, hisobotning nomini "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" emas, balki "Xususiy kapitalning harakati to'g'risidagi hisobot" deb nomlash maqsadga muvofiq. Chunki, hisobotda xususiy kapital elementlarining davr boshidagi holati, uning hisobot davri davomida aniq moddalari hisobidan o'zgarishi va hisobot davrining oxiridagi holati to'g'risidagi axborotlar taqdim etilishi talab etiladi. Bundan tashqari xususiy kapitalning hisobot davri davomida o'zgarishi aks ettirilgan taqdirdagina tashkilotning moliyaviy holatining o'zgarishiga, sof aktivlarining o'sishiga baho berish mumkin.

Ikkinchidan, amaldagi shakldan farqli o'laroq, xususiy kapital tarkibida ustav kapitali aksiyadorlik kapitali hamda hissa va pay kapitaliga ajratildi. Aksiyadorlik kapitalining tarkibi to'liq shakllantirildi. Unda oddiy aksiya (nominal qiymati va nominal qiymatidan ortiq qismi – qo'shimcha kapital), imtiyozli aksiya, zaxiradagi aksiya va jami aksiyadorlik kapitali summasi uchun alohida ustunlar ajratildi.

Uchinchidan, aksiyadorlik kapitali ko'payishi aksiyalarning sotilishi, aksiya narxining oshishi hisobidan ekanligi aniq ko'rsatilgan. Xuddi shuningdek, aksiyalarning bekor qilinishi, aksiya narxining pasayishi kabi axborotlar alohida satrda ko'rsatilgan, qaysiki bu axborotlar xususiy kapitalning harakatidagi asosiy manbalar hisoblanadi. Amaldagi shaklda esa bu axborotlar umumlashtirgan tarzda keltirilgan.

To'rtinchidan, amaldagi shaklda ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kurslari farqlari uchun ham alohida satr ajratilgan. Kurs farqi ustav kapitalini shakllantirishda salmoqli manba sifatida qaralmasligi lozim, deb o'ylaymiz. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha ta'sischilarning

qarzlarni yuzaga keltirmasdan, to'g'ridan-to'g'ri haqiqatda kiritilgan ustav kapitali summasi bo'yicha shakllantirganda kurs farqi yuza kelmaydi. Natijada, ushbu satrga ehtiyoj qolmaydi. Bundan tashqari tekinga olingan mol-mulk satri xalqaro standartlarda e'tirof etilmaganligi uchun olib tashlandi.

#### **XULOSA.**

Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot - bu korxona moliyaviy barqarorligini, foydaning taqsimlanishini va egalar kapitalining harakatini yorituvchi muhim moliyaviy hisobot shaklidir. Ushbu hisobot investorlar, soliq organlari va menejerlar uchun ishonchli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Ammo amaliyotda bu hisobot ko'pincha yuzaki yuritiladi yoki to'liq axborot bilan ta'minlanmaydi. Bu esa moliyaviy tahlil va qaror qabul qilish jarayonida noaniqliklar keltirib chiqaradi.

Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar hisobotini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri baholash, investorlar uchun ishonchli axborot yaratish va korporativ boshqaruvda shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Bu sohada xalqaro standartlarga asoslangan tizimli yondashuv va texnologik integratsiya zarurdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi №54-sonli qarori.

4. Davlat ulushi bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif – T.: "MOLIYA", 2010 - 272 b.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

<http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 y. 555  
Раздаточный материал по курсу повышения квалификации: «Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). O'zbekiston auditorlar palatasi. Tashkent-2015. 335-bet.